

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

№6

ILMIY ELEKTRON JURNALI





ISSN: 2181-3965
VOLUME 6
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avezimbetovich – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, texnika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovaциyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma’naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta’lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

To‘lqin Zakirovich Teshabayev –iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne’matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymuratov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Fan, ta’lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo‘mitasi raisi

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta’lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu’min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)

Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyevich – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Teshayev Zavqiddin Jabbor o‘g‘li – Qarshi davlat universiteti Turizm va marketing kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Hazratqulov Shahboz Boboqul o‘g‘li – Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li – mas’ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O’zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

“**Moliyaviy texnologiyalar**” ilmiy elektron jurnali 23.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

MUNDARIJA

1.	Jumayev Akbar Mahmudovich	Turizmning hududiy iqtisodiyotdagi o‘rni va joylashtirish resurslaridan foydalanish samaradorligini statistik baholash	8
2.	Mamutova Amina Raxmetovna	Qurilish tashkilotlarida zamonaviy va ananaviy usullarda xarajatlarni hisoblashning usullari	14
3.	Нурматова Насиба Шерзодовна, Гозиев Ризоиддин Чулпонович	Экономическая роль Узбекистана как стратегического партнера в Центральной Азии	23
4.	Amatov Azizbek G‘ayrat o‘g‘li	Tijorat banklarida aktiv va passivlarni boshqarishda obligatsiya emissiyasining o‘rni: likvidlik, muddatlar nomuvofiqligi va qayta moliyalash risklari	29
5.	Saitkulov Suxrob Shavkatovich	Budjet tashkilotlarida ichki auditning natijadorligini baholash ko‘rsatkichlari tizimini takomillashtirish	36
6.	Kulboyeva Nargiz Majitovna	Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jarayonini takomillashtirish	43
7.	Alimqulov Hikmatulla Bahrom o‘g‘li	Prognozdan ortiq soliq tushumlarini hududiy budjetlarda qoldirishning tabaqalashtirilgan mexanizmi	52
8.	Jo’rayev Shoxrux Yunusali o’g’li, Temirova Dilshoda Erkin qizi, Togayev Salim Sobirovich	Loyiha boshqaruvida Scope creep muammosi: sabablari, oqibatlari va oldini olish mexanizmlari	61
9.	Djurayeva Iroda Bahrom qizi	O‘zbekistonda institutsional islohotlar samaradorligini xalqaro boshqaruv indikatorlari asosida baholash	68
10.	Otaxonov Komilxon Saidolim o‘g‘li	Oliy ta’lim muassasalarining iqtisodiy barqarorligini kompleks baholash metodologiyasini takomillashtirish	73
11.	Tillaxo‘jayeva Sadoqatxon Shuxrat qizi, Ungarbayeva Aynura Baxtiyer qizi, Togayev Salim Sobirovich	Loyiha boshqaruvida xaridlar va manfaatdor tomonlar bilan ishlash	80
12.	Mexmonaliyev Abbosjon G‘ayratjon o‘g‘li	“Yashil” loyihalarni moliyalashtirishda moliyaviy-ekologik skoring modelini joriy etish mexanizmini takomillashtirish	88
13.	Shovkatov Nodirjon Ne’matjon öğli	Özbekistonda köçmas mulkni ommaviy baholaşning institutsional va metodologik asoslarini takomillaştiriş	95
14.	Jo‘rayev Isroil Ibrohimovich	Tijorat banklari faoliyati transformatsiyalashuvining bank xizmatlari raqobatbardoshligini oshirishdagi roli	103

15.	Tadjibekova Dilnoza Baxtiyarovna	Fintex to‘lov servislarining (Payme, Click, Uzum) moliyaviy inklyuziyani kengaytirishdagi roli va ahamiyati	112
16.	Davranov Odil Jumanazarovich	Surxondaryo viloyatida ovlangan baliqlar hajmi ko‘rsatkichlarini arima modeli yordamida prognozlashtirish	124
17.	Tashxodjayeva Sevara Yarashevna	HR-brendingning paydo bo‘lish shart-sharoitlari va asosiy tushunchalarining shakllanishi	135
18.	Shaislamova Nargiza Kabilovna, Zohidova Ruxsora Komiljon qizi	O‘zbekistonda islomiy moliya asosida investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishlari	141
19.	Сабирова Лола Шавкатовна	Взаимосвязь экономических и этических основ Узбекского предпринимательства	152
20.	Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich	O‘zbekistonda raqamli to‘lovlar va moliyaviy texnologiyalar bozorining rivojlanishi: tendensiyalar, xatarlar va tartibga solish yo‘nalishlari	158
21.	Mamarajabov Abdisamad Saidmurot o‘g‘li	Bojxona auditida tanlov mexanizmlari va ichki nazoratni baholashning ilmiy-amaliy jihatlari	166
22.	Qilichev Sanjarbek Javlonbek o‘g‘li	Sug‘urta kompaniyalarining investitsion jozibadorligi iqtisodiy mohiyati va uni shakllantiruvchi omillarning nazariy-metodologik asoslari	173
23.	Mamatov Baxadir Safaraliyeviç	Özbekistonning xalqaro investitsiyaviy hamkorligini rivojlantirişning iqtisodiy mexanizmlari va ustuvor yönalişlari	183
24.	Abdulxakimov Sirojiddin Nurboy o‘g‘li	Milliy kapital bozori rivojlanishining joriy tendensiyalari tahlili	193

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

ÖZBEKISTONNING XALQARO INVESTITSIYAVIY HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRIŞNING IQTISODIY MEXANIZMLARI VA USTUVOR YÖNALIŞLARI

Mamatov Baxadir Safaraliyeviç
Iqtisodiyot fanlari doktori
Baholaş işi va investitsiyalar kafedrasi professori
Toşkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail:bahadir_mamatov@mail.ru

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Özbekistonning xalqaro investitsiyaviy hamkorligini rivojlantirişning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Xalqaro investitsiyaviy hamkorlikning milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qiliş, işlab çiqarişni diversifikatsiyalaş, innovasion texnologiyalarni joriy etiş va mamlakatning global iqtisodiy integratsiyasini çuqurlaştirişdagi ahamiyati asoslangan. 2020-2025-yillarda Özbekiston iqtisodiyotiga jalb etilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar dinamikasi, töğridan-töğri xorijiy investitsiyalar oqimi hamda investitsiyaviy hamkorlikning tarkibiy xususiyatlari statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida xalqaro investitsiyaviy hamkorlik samaradorligini oşiriş, investitsiya manbalarini diversifikatsiyalaş, texnologik transferni rağbatlantiriş va investitsiyalarning eksport salohiyatiga ta'sirini kuçaytiriş böyiça ilmiy taklif va tavsiyalar işlab çiqilgan.*

Kalit sözlar: *investitsiyalar, xalqaro investitsiyaviy hamkorlik, xorijiy investitsiyalar, töğridan-töğri xorijiy investitsiyalar, investitsiya muhiti, investitsiya siyosati, kapital oqimi, texnologik transfer, iqtisodiy integratsiya, davlat-xususiy şeriklik, eksport salohiyati.*

ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ И ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ МЕЖДУНАРОДНОГО ИНВЕСТИЦИОННОГО СОТРУДНИЧЕСТВА УЗБЕКИСТАНА

Маматов Бахадир Сафаралиевич
доктор экономических наук
профессор кафедры оценки и инвестиций
Ташкентский государственный экономический университет
E-mail: bahadir_mamatov@mail.ru

Аннотация. *В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты развития международного инвестиционного сотрудничества в Узбекистане. Обосновывается важность международного инвестиционного сотрудничества в модернизации национальной экономики, диверсификации производства, внедрении инновационных технологий и углублении глобальной экономической интеграции страны. На основе статистических данных анализируется динамика привлечения иностранных инвестиций и кредитов в экономику Узбекистана в 2020-2025 годах, поток прямых иностранных инвестиций и структурные особенности инвестиционного сотрудничества. По результатам исследования разработаны научные предложения и рекомендации по повышению эффективности международного инвестиционного сотрудничества, диверсификации источников инвестиций, стимулированию трансфера технологий и усилению влияния инвестиций на экспортный потенциал.*

Ключевые слова: *инвестиции, международное инвестиционное сотрудничество, иностранные инвестиции, прямые иностранные инвестиции, инвестиционный климат, инвестиционная политика, поток капитала, трансфер технологий, экономическая*

интеграция, государственно-частное партнерство, экспортный потенциал.

ECONOMIC MECHANISMS AND PRIORITY AREAS FOR THE DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN’S INTERNATIONAL INVESTMENT COOPERATION

Mamatov Bahadir Safaraliyevich

Doctor of Economics
Professor of the Department
of Evaluation and Investments
Tashkent State University of Economics
E-mail: bahadir_mamatov@mail.ru

Abstract. *This article examines the theoretical and practical aspects of the development of international investment cooperation in Uzbekistan. It substantiates the importance of international investment cooperation for the modernization of the national economy, the diversification of production, the introduction of innovative technologies, and the deepening of the country’s global economic integration. Based on statistical data, the study analyzes the dynamics of attracting foreign investments and loans into Uzbekistan’s economy between 2020 and 2025, the flow of foreign direct investment (FDI), and the structural characteristics of investment cooperation. The research findings serve as the basis for scientific proposals and recommendations aimed at enhancing the effectiveness of international investment cooperation, diversifying investment sources, promoting technology transfer, and strengthening the impact of investments on export potential.*

Keywords: *investments, international investment cooperation, foreign investments, foreign direct investment (FDI), investment climate, investment policy, capital flow, technology transfer, economic integration, public-private partnership, export potential.*

Kiriş.

Jahon iqtisodiyotida globallaşuv jarayonlarining çuqurlaşuvi, xalqaro kapital harakatining kengayişi, işlab çiqariş zanjirlarining transmilliy tus olişi hamda texnologik raqobatning kuçayişi mamlakatlarning xalqaro investitsiyaviy hamkorligini rivojlantirişni iqtisodiy taraqqiyotning muhim şartlaridan biriga aylantirmoqda. Bugungi kunda xorijiy investitsiyalar nafaqat moliyaviy resurslar manbai, balki zamonaviy texnologiyalar, boşqaruv tajribasi, innovasion işlanmalar, xalqaro bozorlarga çiqiş imkoniyatlari va yangi iş örinlarini şakllantiruvçi muhim iqtisodiy omil sifatida namoyon bölmoqda. Biroq, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va rivojlanish bo‘yicha konferensiyasi (YUNKTAD)ning ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda global to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar mo‘tadil o‘sishni ko‘rsatdi, biroq geosiyosiy keskinlik va savdo risklari sababli tiklanish jarayoni nobarqarorligicha qolmoqda. Ayniqsa, eng kam rivojlangan davlatlar bundan jiddiy zarar ko‘rdi. Xalqaro infratuzilma loyihalari 10 foizga qisqardi” [1].

Jahon tajribasi şuni körsatadiki, xalqaro investitsiyaviy hamkorlikdan samarali foydalangan davlatlar iqtisodiy ösiş sur’atlarini jadallaştiriş, milliy işlab çiqarişning raqobatbardoşligini oşiriş va global qiymat zanjirlariga integratsiyalaşişda sezilarli natijalarga erişgan. Xususan, Singapur, Janubiy Koreya, Malayziya va Vyetnam kabi mamlakatlar xorijiy kapitalni jalb etişni sanoatni modernizatsiya qiliş, eksportga yönaltirilgan işlab çiqarişni rivojlantiriş va yuqori texnologiyali tarmoqlarni şakllantiriş bilan uzviy boğlagan. Uşbu davlatlar tajribasi investitsiyalarni jalb qilişning özi yetarli emasligini, balki ularni milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli strategik maqsadlariga muvofiq yönaltiriş zarurligini körsatadi. Özbekiston uçun ham xalqaro investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantiriş alohida strategik ahamiyatga ega. Mamlakatning geografik joylaşuvi, tabiiy resurslar salohiyati, içki bozor hajmi, mehnat resurslari, mintaqaviy transport-kommunikatsiya imkoniyatlari va iqtisodiyotni modernizatsiya qilişga bölgan ehtiyoj xorijiy investorlar uçun muhim iqtisodiy imkoniyatlarni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, 2017-yildan boşlab amalga oşirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida valyuta bozorining liberallaştirilişi,

investitsiya qonunçiligining takomillaştirilişi, xususiylaştiriş jarayonlarining kengaytirilişi, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining rivojlantirilişi va davlat-xususiy şeriklik mexanizmlarining joriy etilişi mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oşirişga xizmat qilmoqda.

Şu bilan birga, Özbekistonda xalqaro investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirişda ayrim tizimli muammolar ham saqlanib qolmoqda. Jumladan, xorijiy investitsiyalarning muayyan tarmoqlar va mamlakatlar kesimida jamlanişi, yuqori qöşilgan qiymat yaratuvçi işlab çiqariş loyihalarining yetarliça köp emasligi, mahalliy korxonalarning xalqaro işlab çiqariş zanjirlariga integratsiyalaşuvi sustligi, texnologik transfer va mahalliylaştiriş jarayonlarining samaradorligini oşiriş zarurati şular jumlasidandir. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot taşkilotining (OECD) Özbekiston böyiça 2025-yilgi tadqiqotida ham xorijiy investitsiyalarning asosan qayta işlaş sanoati, energetika va qazib oliş tarmoqlarida jamlangani, şuningdek, xorijiy kapitalning milliy iqtisodiyotga texnologik va innovasion ta’sirini kuçaytiriş uçun qöşimça imkoniyatlar mavjudligi ta’kidlangan. Şu nuqtai nazardan, Özbekistonning xalqaro investitsiyaviy hamkorligini rivojlantirişning iqtisodiy mexanizmlarini takomillaştiriş, investitsiyalarning tarkibiy sifatini yaxşilaş va ularning milliy iqtisodiyot samaradorligiga ta’sirini kuçaytiriş mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot metodlari.

Tadqiqot jarayonida tizimli yondaşuv, ilmiy abstraksiya, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, dinamik qatorlar, iqtisodiy-mantiqiy tahlil va umumlaştiriş usullaridan foydalanildi.

Adabiyotlar şarhi.

Xalqaro investitsiyaviy hamkorlikning nazariy asoslari bir qator iqtisodçi-olimlarning ilmiy tadqiqotlarida öz ifodasini topgan. Jumladan, amerikalik iqtisodçi Stiven Haymer özining xorijiy töğridan-töğri investitsiyalar nazariyasida “transmilliy kompaniyalarning boşqa mamlakatlarga kapital kiritişini ularning raqobat ustunliklari, texnologik imkoniyatlari va bozordagi mavqei bilan izohlaydi”[2]. Olimning yondaşuviga köra, xorijiy investorlar yangi bozorlarga kirişda mahalliy korxonalarga nisbatan muayyan ustunliklarga ega bölişi kerak. Bu ustunliklar texnologiya, brend, boşqaruv tajribasi va moliyaviy imkoniyatlar bilan boğliq bölişi mumkin.

Jon Danning tomonidan işlab çiqilgan eklektik paradigma, ya’ni OLI modeli xalqaro investitsiyaviy hamkorlikni tuşuntirişda muhim nazariy yondaşuv hisoblanadi. Uşbu model uçta asosiy omilga tayanadi: “mulkçilik ustunliklari - investorning texnologiya, brend, intellektual mulk va boşqaruv salohiyatiga egaligi; joylaşuv ustunliklari - investitsiya kiritilayotgan mamlakatning resurslari, bozor hajmi, geografik joylaşuvi va institusional muhiti; mahalliylaştiriş ustunliklari - investorning iqtisodiy faoliyatni mustaqil taşkil etiş orqali xarajatlarni kamaytiriş va samaradorlikni oşiriş imkoniyati” [3]. Mazkur nazariya Özbekistonning xalqaro investitsiyaviy hamkorligini rivojlantirişda ham muhim ahamiyatga ega. Çunki mamlakatning tabiiy resurslari, mintaqaviy bozorlarga yaqinligi, mehnat resurslari va iqtisodiy islohotlari xorijiy investorlar uçun joylaşuv ustunliklarini şakllantiradi.

Boris Borenşteyn, Xose De Gregorio va Jon Li 1998-yildagi ilmiy tadqiqotlarida “töğridan-töğri xorijiy investitsiyalar iqtisodiy ösişga ijobiy ta’sir körsatişini, biroq bu ta’sir qabul qiluvçi mamlakatdagi inson kapitali va texnologik özlaştiriş imkoniyatlariga boğliqligini asoslab berganlar” [4]. Ularning ilmiy xulosalariga köra, xorijiy investitsiyalardan samarali foydalaniş uçun mamlakatda yetarli darajada malakali mehnat resurslari va texnologik salohiyat mavjud bölişi lozim.

Pol Romerning endogen iqtisodiy ösiş nazariyasida esa “texnologik taraqqiyot, bilimlar va innovatsiyalar uzoq muddatli iqtisodiy ösişning asosiy manbalari sifatida qaraladi” [5]. Uşbu yondaşuv xorijiy investitsiyalarning nafaqat kapital oqimi, balki yangi bilim va texnologiyalarning milliy iqtisodiyotga kirib kelişidagi rolini ham asoslaydi.

Xalqaro investitsiyaviy hamkorlik masalalarida Jahon banki, Xalqaro valyuta jamğarmasi, UNCTAD va OECD kabi xalqaro taşkilotlarning tadqiqotlari ham muhim ahamiyatga ega.

Ularning yondaşuvlarida “investitsiyaviy muhitning barqarorligi, huquqiy kafolatlar, institusional sifat, infratuzilma, raqobat muhiti va inson kapitali xorijiy investitsiyalarni jalb etişning asosiy şartlari” [6] sifatida belgilanadi.


Özbekiston şaroitida mazkur masalalarni örganişda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qiliş, investitsiya muhitini takomillaştiriş va xorijiy kapitaldan samarali foydalanişga bağişlangan mahalliy iqtisodiy-olimlardan A.Vaxabov [7], D.G‘ozibekov [8], Sh.Mustafakulov [9] ning ilmiy ishlarida investitsiya jarayonlari, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoşligi, moliyaviy resurslarni safarbar etiş va iqtisodiy ösişning institusional omillari tadqiq etilgan. Mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda investitsiyalar iqtisodiy ösişni ta’minlaş, asosiy kapitalni yangilaş va işlab çiqariş salohiyatini kengaytirişning muhim omili sifatida e’tirof etiladi. Şu bilan birga, xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotning tarmoq va hududiy rivojlaniş ustuvorliklariga muvofiq yönaltiriş masalasi ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar.

Xalqaro investitsiyaviy hamkorlik - bu mamlakatlar, xalqaro moliya institutlari, transmilliy korporatsiyalar va xususiy investorlar örtasida kapital, texnologiya, bilim va boşqaruv resurslarini özaro manfaatli şartlar asosida safarbar etiş orqali milliy iqtisodiyotlarning barqaror rivojlanişi va global iqtisodiy integratsiyasini ta’minlaşga qaratilgan iqtisodiy munosabatlar tizimidir. Uşbu ta’rifda xalqaro investitsiyaviy hamkorlikning moliyaviy, texnologik, institusional va integrasion xususiyatlari bir butun iqtisodiy jarayon sifatida ifodalangan. Xalqaro investitsiyaviy hamkorlik iqtisodiy mazmun jihatidan bir mamlakat rezidentlari yoki investorlarining boşqa mamlakat iqtisodiyotiga kapital, moliyaviy resurslar, texnologiyalar va boşqaruv salohiyatini yönaltiriş orqali özaro iqtisodiy manfaatlarga asoslangan munosabatlar tizimini ifodalaydi. Uşbu hamkorlik töğridan-töğri xorijiy investitsiyalar, portfel investitsiyalari, xalqaro kreditlar, qöşma korxonalar, davlat-xususiy şeriklik va transmilliy korporatsiyalar faoliyati orqali amalga oşiriladi.


Özbekistonda xalqaro investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantiriş jarayonlari 2020-2025-yillarda bir neça bosqiçni qamrab oldi. Uşbu davrda jahon iqtisodiyotida COVID-19 pandemiyasi, geosiyosiy beqarorlik, global logistika zanjirlaridagi uzilişlar, inflyasion bosim va xalqaro moliya bozorlaridagi özgarişlar kuzatildi. Şunday şaroitda mamlakatda investitsiyaviy faollikni saqlab qoliş va xorijiy kapital oqimini kengaytiriş iqtisodiy siyosatning muhim yönalişlaridan biri böldi.

Özbekiston Respublikasi Milliy statistika qömitasining rasmiy ma’lumotlariga köra, 2020-2025-yillarda asosiy kapitalga özlaştirilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi quyidagi dinamikaga ega bölgan.



1-rasm. Özbekistonda asosiy kapitalga özlaştirilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi (2020-2025-yillar) [10]

Rasm ma’lumotlari tahlili şuni körsatadiki, 2020-yilda asosiy kapitalga yönaltirilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 89,8 trln sömni taşkil etgan bölsa, 2025-yilda uşbu körsatkiç 433,9 trln sömga yetgan. Demak, tahlil davrida mazkur körsatkiç nominal qiymatda qariyb 4,8 barobar oşgan. 2021-2022-yillarda investitsiya hajmining ösişi nisbatan mötadil bölgan. Bu davrda pandemiyadan keyingi iqtisodiy tiklaniş, taşqi iqtisodiy şaroitdagi noaniqliklar va moliyaviy resurslar qiymatining özgarişi investitsiya jarayonlariga ta’sir körsatgan. 2023-yilda esa xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 201,7 trln sömga yetgan. Bu 2022-yilga nisbatan 77,1 foizlik nominal ösişni anglatadi. 2024-yilda uşbu körsatkiç 351,8 trln sömga, 2025 yilda esa 433,9 trln sömga yetgan. Şu örinda qayd etiş lozimki, jadvalda keltirilgan ösiş sur’atlari joriy narxlardagi nominal körsatkiçlar asosida hisoblangan. Şu sababli ularni inflyasiya ta’siridan tozalangan real investitsiya ösişi sifatida talqin qiliş töğri bölmaydi. Investitsiyaviy hamkorlik samaradorligini çuqurroq baholaş uçun töğridan-töğri xorijiy investitsiyalar oqimini alohida örganiş muhimdir. Çunki xorijiy investitsiyalar va kreditlar umumiy körsatkiçi tarkibida qarz mablağlari ham mavjud bölib, ularning iqtisodiy mazmuni töğridan-töğri investitsiyalardan farq qiladi.




2-rasm. Özbekistonga kirib kelgan sof töğridan-töğri xorijiy investitsiyalar dinamikasi (mlrd. AQŞ dollari) [11]

Uşbu ma’lumotlardan körinadiki, 2020-yilda sof töğridan-töğri xorijiy investitsiyalar oqimi 1,7 mlrd AQŞ dollarini taşkil etgan bölsa, 2022-yilda 2,7 mlrd AQŞ dollariga yetgan. 2023-yilda mazkur körsatkiç 2,2 mlrd AQŞ dollarigaça pasaygan. Bu taşqi iqtisodiy muhitdagi noaniqliklar, investitsiya loyihalarini moliyalaştiriş şaroitlari va kapital harakatidagi özgarişlar bilan boğliq holda baholanişi mumkin. 2024-yilda töğridan-töğri xorijiy investitsiyalar sof oqimi 2,9 mlrd AQŞ dollariga, 2025-yilda esa 4,4 mlrd AQŞ dollariga yetgan. Bu 2025-yilda 2024-yilga nisbatan qariyb 1,5 barobar ösişni anglatadi. Şuningdek, Markaziy bank ma’lumotlariga köra, 2025-yilda sof töğridan-töğri xorijiy investitsiyalar oqimi yalpi içki mahsulotning 3 foiziga teng bölgan. Bu holat Özbekiston iqtisodiyotining xalqaro kapital harakatidagi iştirokini kuçaytirayotganini körsatadi. Biroq investitsiyalarning miqdoriy ösişi bilan bir qatorda ularning iqtisodiy samaradorligi, tarmoqlar böyiça taqsimlanişi va texnologik ta’sirini ham baholaş zarur.

Özbekistonda xalqaro investitsiyaviy hamkorlikning muhim xususiyatlaridan biri xorijiy kapitalning muayyan tarmoqlarda jamlanişidir. Xususan, energetika, qayta işlaş sanoati, toğ-kon sanoati, infratuzilma va quriliş sohalari xorijiy investorlar uçun asosiy yönalişlar hisoblanadi. OECDning Özbekiston investitsiya siyosati böyiça 2025-yilgi tadqiqotiga köra, xorijiy investitsiyalarning katta qismi qayta işlaş sanoati, energetika va qazib oliş tarmoqlariga töğri keladi. Şuningdek, moliya va ayrim xizmatlar sohalarida xorijiy investorlarning qiziqişi ortib

borayotgan bölsa-da, bu yönalişlarning salohiyati hali töliq işga solinmagan. Mamlakatlar kesimida ham investitsiya manbalarining muayyan darajada konsentratsiyalaşuvi kuzatiladi. Milliy statistika qömitasining 2024 yil böyiça ma’lumotlariga asosan, asosiy kapitalga yönaltirilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar tarkibida quyidagi mamlakatlar muhim örin egallagan.



3-rasm. 2024-yilda Özbekistonga xorijiy investitsiyalar va kreditlar kiritişda asosiy hamkor mamlakatlar uluşi (foiz hisobida) [12]

Jadval ma’lumotlari tahliliga köra, Xitoy 27,9 foizlik uluş bilan Özbekistonning asosiy investitsiya hamkorlaridan biri hisoblanadi. Rossiyaning uluşi 13,2 foizni, Turkiyaning uluşi esa 6,8 foizni taşkil etgan. Uşbu holat Özbekistonning xalqaro investitsiyaviy hamkorligida Osiyo va Mustaqil Davlatlar Hamdöstligi mamlakatlari muhim örin tutişini körsatadi. Şu bilan birga, Germaniya, Niderlandiya, Buyuk Britaniya va boşqa rivojlangan davlatlar bilan investitsiyaviy aloqalarni yanada kengaytiriş imkoniyatlari mavjud. Investitsiya manbalarining diversifikatsiya qilinişi iqtisodiy xavflarni kamaytiriş, yangi texnologiyalar va boşqaruv tajribasini jalb qiliş, xalqaro raqobat muhitini rivojlantiriş hamda milliy iqtisodiyotning taşqi iqtisodiy barqarorligini mustahkamlaşga xizmat qiladi.

Şuni ham alohida qayd etiş joziki, xalqaro investitsiyaviy hamkorlikni faqat jalb etilgan kapital hajmi bilan baholaş yetarli emas. Uning milliy iqtisodiyotga ta’sirini aniqlaşda mehnat unumdorligi, eksport salohiyati, yangi iş örinlari, mahalliylaştiriş darajasi, texnologiyalar transferi va qöşilgan qiymat kabi mezonlardan ham foydalaniş lozim. OECD tadqiqotida Özbekistonda xorijiy kapital iştirokidagi korxonalar mehnat unumdorligi mahalliy kapital iştirokidagi korxonalarga nisbatan örtaça 64 foiz yuqori ekani qayd etilgan. Biroq mazkur farqning bir qismi xorijiy investitsiyalarning nisbatan yuqori unumdorlikka ega tarmoqlarda jamlangani bilan ham izohlanadi. Şuningdek, xorijiy korxonalarning eksportga yönaltirilganlik darajasi yuqoriligi ularning milliy iqtisodiyotni taşqi bozorlarga integratsiyalaşuvidagi ahamiyatini körsatadi. Biroq mahalliy kiçik va örta biznes sub’yektlarining texnologik imkoniyatlari, malakali kadrlar bilan ta’minlanganlik darajasi va xalqaro işlab çiqariş zanjirlariga integratsiyalaşuvidagi mavjud çeklovlar xorijiy investitsiyalardan kelib çiqadigan bilvosita iqtisodiy samaralarning töliq namoyon bölişiga tösqinlik qilişi mumkin. Şu asosda xalqaro investitsiyaviy hamkorlik samaradorligini baholaş uçun quyidagi körsatkiçlarni birgalikda qöllaş maqsadga muvofiq:

- sof töğridan-töğri xorijiy investitsiyalar oqimining yalpi içki mahsulotga nisbati;
- xorijiy investitsiyalarning qayta işlaş sanoatidagi uluşi;
- xorijiy kapital iştirokidagi korxonalarning eksport hajmi;

- investitsiya loyihalarida mahalliy mahsulot va xizmatlar uluşi;
- investitsiyalar hisobiga yaratilgan yangi iş örinlari;
- xorijiy investitsiyalar iştirokida joriy etilgan yangi texnologiyalar soni;
- investitsiyalarning energiya samaradorligi va ekologik barqarorlikka ta’siri.

Uşbu mezonlar asosida investitsiyaviy hamkorlikning nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatlarini ham baholaş imkoniyati paydo böladi.

Ötkazilgan tahlillar Özbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qiliş borasida sezilarli natijalarga erişilganini körsatadi. Biroq xalqaro investitsiyaviy hamkorlikning barqarorligi va iqtisodiy samaradorligini ta’minlaş nuqtai nazaridan bir qator muammolar mavjud.

Birinçidan, investitsiya manbalarining geografik jihatdan konsentratsiyalaşuvi kuzatiladi. Ayrim mamlakatlar uluşining yuqoriligi taşqi iqtisodiy va geosiyosiy özgarişlarga nisbatan investitsiyaviy boğliqlikni kuçaytirişi mumkin.

Ikkinçidan, xorijiy investitsiyalarning tarmoqlar böyiça taqsimlanişida nomutanosibliklar mavjud. Energetika, toğ-kon va yirik sanoat loyihalariga katta mablağlar yönaltirilayotgan bir şaroitda axborot texnologiyalari, biotexnologiya, farmasevtika, ilmiy tadqiqotlar va yuqori texnologiyali xizmatlar sohalarida investitsiyalarni kengaytiriş imkoniyatlari töliq işga solinmagan.

Uçinçidan, xorijiy investitsiyalar iştirokidagi korxonalar bilan mahalliy kiçik va örta biznes sub’yektlari örtasidagi kooperatsiya aloqalarini kuçaytiriş talab etiladi. Mahalliy korxonalarning xalqaro standartlarga muvofiq işlab çiqarişni taşkil etiş, sifatni boşqariş va zamonaviy texnologiyalardan foydalaniş imkoniyatlari yetarliça rivojlanmagan holatlar mavjud.

Törtinçidan, investitsiya loyihalarining natijadorligini baholaşda asosan moliyaviy hajm va özlaştiriş körsatkiçlariga e’tibor qaratilişi mumkin. Biroq loyihalarning eksportga ta’siri, mehnat unumdorligi, yangi texnologiyalarni joriy etiş va ekologik samaradorlik kabi mezonlarini ham tizimli baholaş zarur.

Beşinçidan, xalqaro investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirişda hududlar örtasidagi iqtisodiy va infratuzilmaviy tafovutlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsiyaviy salohiyat yuqori bölgan ayrim hududlarga nisbatan infratuzilma, logistika va malakali kadrlar bilan ta’minlaniş darajasi past hududlarda xorijiy kapitalni jalb qiliş qiyinroq keçadi.

Oltinçidan, xalqaro investitsiyaviy şartnomalarni amalga oşiriş, investorlar huquqlarini himoya qiliş va investitsiya nizolarining oldini oliş mexanizmlarini yanada takomillaştiriş zarur.

Demak, Özbekistonning investitsiyaviy siyosatini takomillaştirişda kapitalni jalb qilişdan uning iqtisodiy samaradorligini oşirişga, miqdoriy körsatkiçlardan sifat körsatkiçlariga bosqiçma-bosqiç ötiş muhim hisoblanadi.

Yuqorida amalga oşirilgan nazariy va statistik tahlillar asosida Özbekistonning xalqaro investitsiyaviy hamkorligini rivojlantiriş böyiça quyidagilarga asosiy e’tibor qaratilişi maqsadga muvofiqdir:

1. *Xalqaro investitsiyaviy hamkorlikni diversifikatsiyalaşning kompleks mexanizmini joriy etiş.* Mamlakatning investitsiyaviy hamkorlik geografiyasini kengaytiriş maqsadida Yevropa Ittifoqi davlatlari, Janubiy Koreya, Yaponiya, Singapur, Malayziya, Hindiston va Fors körfazi mamlakatlari bilan investitsiyaviy aloqalarni yanada faollaştiriş lozim. Bunda faqat investitsiya hajmini oşiriş emas, balki hamkor mamlakatlarning texnologik, innovasion va boşqaruv imkoniyatlarini ham hisobga oliş maqsadga muvofiq.

2. *Xorijiy investitsiyalarni yuqori qöşilgan qiymat yaratuvçi tarmoqlarga yönaltiriş.* Investitsiya siyosatining ustuvor yönalişlari sifatida quyidagi sohalarni belgilaş taklif etiladi: farmasevtika va biotexnologiya; elektrotexnika va mikroelektronika; axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt; agrosanoat va oziq-ovqat mahsulotlarini çuqur qayta işlaş; kimyo va neft-kimyo sanoati; qayta tiklanuvçi energetika; logistika va zamonaviy transport infratuzilmasi. Uşbu tarmoqlarga investitsiyalarni jalb qiliş orqali milliy iqtisodiyotning texnologik salohiyatini oşiriş va eksport tarkibini diversifikatsiyalaş imkoniyati kengayadi.

3. *Xorijiy investorlar va mahalliy korxonalar örtasida kooperatsiya mexanizmlarini*

kuçaytiriş. Xorijiy investitsiya iştirokidagi yirik korxonalarning mahalliy kiçik va örta biznes sub’yektlari bilan işlab çiqariş kooperatsiyasini rivojlantiriş zarur. Buning uçun mahalliy yetkazib beruvçilarning yagona elektron ma’lumotlar bazasini şakllantiriş, xalqaro sertifikatlaş tizimlarini joriy etiş, texnologik konsalting xizmatlarini kengaytiriş va mahalliy korxonalarning transmilliy kompaniyalar ta’minot zanjirlariga kirişini rağbatlantiriş taklif etiladi.

4. *Investitsiya loyihalarining samaradorligini baholaşning integral körsatkiçlar tizimini işlab çiqiş.* Mazkur taklifning mohiyati investitsiya loyihalarini faqat özlaştirilgan mablağ hajmi asosida emas, balki ularning milliy iqtisodiyotga qöşgan real hissasi asosida baholaşdan iborat. Buning uçun quyidagi mezonlarni öz içiga olgan integral baholaş tizimini joriy etiş maqsadga muvofiq: investitsiya loyihasining eksport salohiyati; yaratilgan yangi iş örinlari; myehnat unumdorligining ösişi; mahalliylaştiriş darajasi; texnologik transfer samaradorligi; ekologik barqarorlik körsatkiçlari; mahalliy tadbirkorlik sub’yektlari bilan kooperatsiya darajasi. Mazkur tizim davlat tomonidan investitsiyaviy imtiyozlar berişda ham muhim mezon sifatida xizmat qilişi mumkin.

5. *Investitsiyaviy hamkorlikda davlat-xususiy şeriklik mexanizmlarini kengaytiriş.* Xalqaro moliya institutlari va xorijiy xususiy investorlar mablağlarini infratuzilma, ta’lim, soğliqni saqlaş, suv ta’minoti, transport va energetika loyihalariga jalb qilişda davlat-xususiy şeriklik mexanizmlaridan samarali foydalaniş zarur. Bunda loyihalarning moliyaviy barqarorligi, tavakkalçiliklarni taqsimlaş, xususiy investorlarning huquqiy kafolatlari va davlat majburiyatlarining şaffofligi ta’minlanişi lozim.

6. *Xalqaro investitsiyaviy hamkorlikning raqamli platformasini takomillaştiriş.* Xorijiy investorlar uçun yagona raqamli investitsiya platformasini yanada rivojlantiriş taklif etiladi. Unda investitsiya loyihalari, hududlarning iqtisodiy salohiyati, infratuzilma imkoniyatlari, yer uçastkalari, soliq va bojxona tartiblari, huquqiy talablar hamda investitsiya loyihalarining amalga oşiriliş holati töğrisidagi ma’lumotlar jamlanişi lozim. Bunday tizim investorlarning axborot oliş xarajatlarini kamaytiradi, ma’muriy jarayonlarni soddalaştiradi va investitsiyaviy qarorlar qabul qiliş tezligini oşiradi.

7. *Investitsiya diplomatiyasini iqtisodiy natijadorlikka yönaltiriş.* Özbekistonning xorijiy davlatlardagi diplomatik vakolatxonalari faoliyatida investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirişga alohida e’tibor qaratiş lozim. Bunda har bir mamlakat böyiça ustuvor tarmoqlar, potensial investorlar, investitsiya loyihalari va hamkorlik imkoniyatlarini qamrab olgan maqsadli dasturlarni işlab çiqiş taklif etiladi. Investitsiya forumlari va xalqaro biznes uçraşuvlarining samaradorligini ularda imzolangan bitimlar soni bilan emas, balki amaliy investitsiyalarning kirib kelişi va loyihalarning işga tuşirilişi bilan baholaş maqsadga muvofiq.

8. *Yaşil investitsiyalar va barqaror rivojlaniş tamoyillarini investitsiya siyosatiga integratsiyalaştiriş.* Xalqaro investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirişda ekologik barqarorlik, energiya tejamkorligi, çiqindilarni qayta işlaş va uglerod çiqindilarini kamaytirişga qaratilgan loyihalarga ustuvorlik beriş zarur. Xususan, xalqaro moliya institutlari va xorijiy investorlar bilan hamkorlikda yaşil obligatsiyalar, yaşil kreditlar va energiya samaradorligiga yönaltirilgan investitsiya mexanizmlarini kengaytiriş taklif etiladi.

9. *Hududlarning investitsiyaviy ixtisoslaşuvini rivojlantiriş.* Har bir hududning tabiiy, iqtisodiy, mehnat va infratuzilmaviy salohiyatidan kelib çiqib, investitsiyaviy ixtisoslaşuv yönalişlarini belgilaş lozim. Bunda hududlar kesimida tayyor investitsiya loyihalari portfelini şakllantiriş, ularning infratuzilma bilan ta’minlanişini yaxşilaş va xorijiy investorlar uçun aniq iqtisodiy takliflar işlab çiqiş maqsadga muvofiq. Mazkur çora-tadbirlar investitsiyalarning hududiy konsentratsiyalaşuvini kamaytiriş va iqtisodiy ösişning hududlar böyiça mutanosibligini ta’minlaşga xizmat qiladi.

Xulosa.

Özbekistonning xalqaro investitsiyaviy hamkorligini rivojlantiriş mamlakat iqtisodiyotining barqaror ösişi, tarkibiy özgarişlarni çuqurlaştiriş, işlab çiqarişni modernizatsiya qiliş va global

iqtisodiy integratsiyani kengaytirişning muhim şartlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida amalga oşirilgan nazariy va statistik tahlillar asosida quyidagi umumiy xulosalar şakllantirildi. Birinçidan, xalqaro investitsiyaviy hamkorlik zamonaviy şaroitda faqat moliyaviy resurslarni jalb qiliş bilan çeklanmaydi. U texnologik transfer, innovasion taraqqiyot, boşqaruv tajribasini özlaştiriş va milliy işlab çiqarişning xalqaro raqobatbardoşligini oşirişni ham qamrab oladi. Ikkinçidan, 2020-2025-yillarda Özbekistonda asosiy kapitalga özlaştirilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 89,8 trln sömdan 433,9 trln sömgaça ösgan. Bu mamlakatning investitsiyaviy hamkorlik kölami kengayganini körsatadi. Biroq mazkur körsatkiçlarning nominal qiymatda ifodalanganini hisobga oliş va real ösişni baholaşda narxlar özgarişi ta’sirini inobatga oliş zarur. Uçinçidan, sof töğridan-töğri xorijiy investitsiyalar oqimi 2025-yilda 4,4 mlrd AQŞ dollariga yetgan va yalpi içki mahsulotning 3 foizini taşkil etgan. Bu xalqaro kapital oqimining mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati ortib borayotganini tasdiqlaydi. Törtinçidan, investitsiyalarning mamlakatlar va tarmoqlar böyiça konsentratsiyalaşuvi investitsiyaviy hamkorlikni diversifikatsiyalaş zarurligini körsatadi. Xususan, rivojlangan mamlakatlar bilan texnologik va innovasion hamkorlikni kengaytiriş muhim ahamiyatga ega. Beşinçidan, xorijiy investitsiyalardan olinadigan iqtisodiy samarani oşiriş uçun mahalliy korxonalarning xalqaro işlab çiqariş zanjirlariga integratsiyalaşuvini ta’minlaş, malakali kadrlar tayyorlaş va innovasion infratuzilmani rivojlantiriş lozim. Oltinçidan, investitsiyaviy hamkorlikning istiqboldagi rivojlanişi investitsiya muhitining huquqiy barqarorligi, investorlar huquqlarining himoya qilinişi, raqobat muhitining yaxşilanişi va davlat boşqaruvining şaffofligiga bevosita boğliq.

Umuman olganda, Özbekistonning xalqaro investitsiyaviy hamkorligini rivojlantirişda asosiy strategik vazifa xorijiy kapital hajmini oşiriş bilan bir qatorda uning sifatini yaxşilaş, yuqori qöşilgan qiymat yaratuvçi tarmoqlarga yönaltiriş va investitsiyalarning milliy iqtisodiyotga texnologik hamda eksportbop ta’sirini kuçaytirişdan iborat bölişi lozim. Şunday ekan, xalqaro investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirişning samarali modeli davlat, xususiy sektor, xorijiy investorlar va xalqaro moliya institutlari örtasidagi özaro manfaatli hamkorlikka, institusional barqarorlikka va innovasion taraqqiyotga asoslanişi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar röyxati

1. World Investment Report 2026 International Investment in a Turbulent Era. United Nations publication issued by the United Nations Conference on Trade and Development UNCTAD/WIR/2026. United Nations Publications 405 East 42nd Street New York, New York 10017 United States of America. wir2026_en (2) (1).pdf

2. Hymer S. H. The International Operations of National Firms: A Study of Direct Foreign Investment. – MIT Press, 1976. Международные операции национальных компаний: исследование прямых иностранных инвестиций, монографии M.I.T. по экономике (Выпуск 14), Массачусетский технологический институт, ISSN 0076-5007. 02013925-MIT.pdf.

3. Dunning J. H. The Eclectic Paradigm of International Production: A Restatement and Some Possible Extensions // Journal of International Business Studies. – 1988. – Vol. 19. – P. 1–31. Dunning J.H. (1998). Location and the Multinational Enterprise: A Neglected Factor? Journal of International Business Studies, 29, - p. 45-66. University of Reading and Rutgers university. (Dunning1998_Article_LocationAndTheMultinationalEnt.pdf - Yandex Documents).

4. Borensztein E., De Gregorio J., Lee J.-W. How Does Foreign Direct Investment Affect Economic Growth? // Journal of International Economics. – 1998. – Vol. 45. – P. 115–135. Кукла М.П. Влияние иностранных инвестиций на эффективность принимающей экономики (на примере Приморского края): автореф. дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05, 08.00.14. - Владивосток: 2008. - 22 с.

5. Romer P. M. Endogenous Technological Change // Journal of Political Economy. – 1990. – Vol. 98. – No. 5. – P. S71–S102. Факторы экономического роста: научно-технический прогресс / Е.А.Пономарева, А.В.Божечкова, А.Ю.Кнобель; под ред. Е.А.Пономаревой. – М.: Дело, РАНХиГС, 2012. – 186 с.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

6. OECD. Roadmap for Sustainable Investment Policy Reforms in Uzbekistan. – Paris: OECD Publishing, 2025. World Bank. World Development Indicators. – Washington, D.C.

7. Vaxabov A.V. va boshq. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: Moliya, 2010. – 328 b.;

8. G‘ozibekov D.G‘. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. Monografiya. – T.: Moliya, 2003. – 332 b.

9. Mustafakulov Sh.I. Investitsion jozibadorlikning nazariy, metodologik va amaliy talqini. Monografiya. – T.: Ma’naviyat, 2021. – 352 b.

10. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining statistik ma'lumotlar bazasi asosida muallif tomonidan tuzilgan. Ko‘rsatkichlar joriy narxlarda, trln so‘mda keltirilgan.

11. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining to‘lov balansi bo‘yicha yillik hisobotlari. Ko‘rsatkichlar sof oqimni, ya'ni kirim va chiqimlar o‘rtasidagi farqni ifodalaydi.

12. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining 2024 yil yakunlari bo‘yicha xorijiy investitsiyalar va kreditlar statistikasi.